

BO‘LAJAK PEDAGOGLARNI KASBIY TAYYORLASHDA DUAL TA’LIM TIZIMINING AHAMIYATI

Xakimov Sodiqjon Rasuljon o‘g‘li

Namangan davlat texnika universiteti mustaqil izlanuvchisi

Email: xakimovsodiqjon14@gmail.com

Orcid id: 0009-0005-9676-9678

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18974305>

Annotatsiya. Maqolada dual ta’lim tizimini tarixi, rivojlanishi va ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan. Shu sohada ilmiy izlanish olib borgan chet olimlari va o‘zbek olimlari ilmiy asarlari tahlil qilingan. Pedagoglarni tayyorlashda dual ta’lim tizimini ahamiyati va kasbiy kompetensiyani shakllanishdagi kamchiliklarga to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, bu kamchiliklarni dual ta’lim tizimi orqali bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalarga to‘xtalib o‘tilgan. Dual ta’limni bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashdagi ahamiyati nazariy yoritib berilib, bevosita tavsiyalar ishlab chiqilgan. Dual ta’lim tizimi bo‘lajak pedagoglarni nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan birgalikda tayyorlash, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va mehnat bozori talablariga moslashuvchan tayyorgarlikni ta’minlash imkoniyatlarini o‘rganadi. Shuningdek, maqolada dual ta’lim tizimining pedagogik yondashuvlari, kompetensiyaviy model asosidagi tayyorgarlik, amaliyot va mentorlik tizimining pedagoglar malakasini oshirishdagi roli keng yoritiladi. Bu orqali ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqilib, O‘zbekiston sharoitida bo‘lajak pedagoglarni tayyorlash sifatini oshirishga hissa qo‘shish ko‘zda tutilgan.

Kalit so‘zlar: kasbiy ta’lim tizimi, dual ta’lim, motivatsiya, amaliy ta’lim, kompetensiyaviy model, mentorlik, raqamli pedagogika.

Hozirgi kunning ta’lim tizimiga yangi metodikalar, yangicha qarashlar, jahonning rivojlangan davlatlar ta’lim texnologiyalari kirib kelmoqda. Talabalarni kasbiy rivojlantirishda xalqaro tajribalarni eng ahamiyatlisini va kasbiy kompetensiyani rivojlantira oladiganini qo‘llash bugungi kunda ta’limda eng samara olishning ahamiyatini belgilaydi. Rivojlangan davlatlar ta’lim tizimlarini o‘rganish va ularni samaralisini milliy ta’lim tizimimizga integratsiya qilish sohada ta’lim olayotgan talabalarni kasbini kelajakdagi mutaxasisi bo‘lishida katta ahamiyat kasb etadi. Ta’limda Singapur, Koreya, AQSh, Kanada, Germaniya va Yaponiya ta’lim tizimlarini o‘rganish ulardan foydalilarini ta’lim tizimimizda qo‘llash, sohaning rivojiga katta hissa qo‘shadi.

Dual ta’lim tizimi tarixan ustoz-shogirt tizimlariga asoslangan ta’lim tizimi hisoblanadi. Zamonaviy kasbiy ta’lim tizimini modeli hisoblangan dual ta’lim tizimi 1969-yil Germaniyada “Kasbiy ta’lim to‘g‘risida”gi qonun bilan asoslangan holda paydo bo‘lgan. Keyinchalik bu ta’lim tizimi Avstriya va Shveysariya davlatlarida rivojlandi. Bugungi kunda dual ta’lim tizimi Yevropa va Osiyoning ko‘plab mamlakatlarida samarali kasbiy tayyorgarlik modeli sifatida joriy etilgan. Jumladan, O‘zbekistonda ham so‘nggi yillarda professional ta’lim tizimida dual ta’lim elementlari bosqichma-bosqich tatbiq etilmoqda.

Dual ta’lim tizimi bo‘yicha ko‘plab Yevropa olimlari o‘z ilmiy ishlarida atroflicha to‘xtalib o‘tishgan. Nemis pedagogi G. Kershensteyner kasbiy ta’limni mehnat bilan uzviy bog‘liqliligini ilgari surgan va “mehnat maktabi” konsepsiyasini ishlab chiqqan. David A. Kolb o‘z asarlarida “ bilim amaliy tajriba, refleksiya va nazariy umumlashtirish orqali nomoyon bo‘ladi” deydi. F.Raunerning tadqiqotlarida Germaniya dual tizimining samaradorligi, ijtimoiy sheriklik modeli va malaka standartlari tahlil qilingan. O‘zbek olimlaridan M.Odilova **o‘qituvchi tayyorlash jarayonida** dual ta’lim yondashuvining ijobiy ta’sirini o‘rganadi, Sh.Tursunova dual ta’lim tizimini O‘zbekiston ta’lim tizimiga moslashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib brogan, G.Sodiqova dual ta’limning umumiy pedagogik rivojlanishi, malakali mutaxassis tayyorlashdagi roli haqida ma’lumot beradi.

Pedagoglarni kasbiy tayyorlashdagi rivojlanish bo‘lishiga qaramay, quyidagi kamchiliklar saqlanib qolmoqda:

- Nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzilish;
- Zamonaviy kompetensiyalarni yetarli shakllanmasligi;
- Talim mazmunining mehnat bozoriga to‘la mos emasligi;
- Motivatsiya va kasbiy idenfikatsiya muammolari.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

Dual ta’lim tizimini bo‘lajak o‘qituvchilarni ta’lim tizimiga joriy etish dars jarayonida olgan bilimlarini o‘quvchilarga berish, zamonaviy ta’lim texnologiyalarini qo‘llash va yangi interaktiv metodlarni ishlab chiqish orqali o‘quvchilarda ta’limga bo‘lgan qiziqishni oshirishga sabab bo‘ladi. Dual ta’lim tizimida maktab va oliygoh integratsiyasi o‘zoro bog‘lanadi. Talaba ham bilim oladi va olgan bilimlarini amalda qo‘llaydi. Dual ta’lim tizimi orqali pedagoglarni quyidagi avzalliklarga erishish mumkin:

- O‘quv dasturlarini kompetensiyaviy model asosida qayta ishlab chiqish;
- Amaliyot muddatini oshirish va uzluksiz qilish;
- Mentorlik (ustoz-shogird) tizimini joriy etish;
- Ta’lim muassasasi va maktab o‘rtasida ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish;
- Raqamli pedagogika kompetensiyasini rivojlantirish;
- Amaliy vaziyatli topshiriqlar (case-study)dan foydalanish.

Dual tizimni tatbiq etish modeli

Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda dual tizim quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Nazariy modul: pedagogika nazariyasi, fan metodikasi, o‘quv reja ishlab chiqish.
2. Amaliy modul: sinfda dars o‘tish, mentor bilan hamkorlik, real pedagogik vaziyatlarni

boshqarish.

3. Refleksiv modul: o‘z faoliyatini tahlil qilish, portfolio va ochiq darslar orqali baholash.

Dual ta’lim tizimi faqat nazariy bilimni amaliy tajriba bilan bog‘lash emas, balki **talabalarni mustaqil pedagogik fikrlash, tanqidiy yondashuv va muammoni hal etish kompetensiyalariga ega qilish** imkonini beradi. Bu esa pedagogik tayyorgarlik sifatini tubdan oshiradi. O‘zbekiston sharoitida dual ta’lim tizimini to‘liq tatbiq etish pedagogik tayyorgarlik sifatini sezilarli darajada oshiradi va bitiruvchilarni real pedagogik jarayonlarga tayyorlaydi. Shu bilan birga, tizimni yanada samarali qilish uchun **uzluksiz malaka oshirish, mentorlik va raqamli pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish** bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi zarur.

Yuqorida ko‘rsatilgan avzalliklar orqali bo‘lajak pedagoglarda, o‘quvchilar bilan ishlashni, raqamli texnologiyalarni joriy etishni takomillashtirish, ustoz-shogirt tizimini rivojlanishi o‘quvchilarda ilmga bo‘lgan qiziqishni oshirishga sabab bo‘ladi. Xulosa qiladigan bo‘lsak, dual ta’lim tizimini bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllanishi kasbiy kompetensiyani rivojlanishi va nazariy ta’limni amaliyot jarayonida qo‘llash osonligini ko‘rsatib beradi. O‘zbekiston pedagogika oliygohlarida dual ta’lim tizimiga etiborni kuchayishi sohada tajribaga ega o‘qituvchilarni ishlab ta’lim olishini uzviy zanjir sidatida bog‘laydi. O‘quvchilar bilan ishlashda ta’limga yondashuvni oson yo‘li orqali bo‘rishga asos bo‘ladi. Dual ta’lim tizimi kelajak ta’lim tizimlaridan biri bo‘lib qoladi va nazariy ta’lim bilan amaliyot jarayonini belbog‘ bilan bog‘lashga asos bo‘la oladi. Dual ta’lim tizimi bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda **nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirish**, kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish va mehnat bozoriga moslashuvchan tayyorgarlikni ta’minlash imkonini beradi. O‘zbekiston sharoitida tizimni keng tatbiq etish pedagogik tayyorgarlik sifatini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

6. Kolb, D. A. (1984). *Experiential learning: Experience as the source of learning and development*. Prentice-Hall.
7. Kerschensteiner, G. (1901). *Die staatsbürgerliche Erziehung der deutschen Jugend*. Teubner.
8. Rauner, F. (2007). Practical knowledge and occupational competence. *Journal of European Industrial Training*, 31(6), 456–469. <https://doi.org/10.1108/03090590710772683>
9. Nishonova, T. X. (2022). Theoretical foundations of implementing the dual education system in Uzbekistan. *Journal of Educational Research and Practice*, 6(2), 45–52.
10. Odilova, M. U. (2023). Dual ta’lim sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarda konstruktiv kompetentlikni rivojlantirish. *Pedagogika va psixologiya masalalari*, 5(3), 112–118.
11. Tursunova, S. A. (2021). Introduction of dual education in the Republic of Uzbekistan. *Ta’lim va innovatsiya*, 4(1), 67–74.
12. Sodiqova, G. E. (2022). O‘zbekiston va xorijiy mamlakatlarda dual ta’lim tizimining rivojlanish tendensiyalari. *Zamonaviy ta’lim*, 7(2), 88–94.